

BOSHLANG‘ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA MUSTAQIL TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH USULLARI VA AHAMIYATI

*Buxoro shahar 12-maktab direktor o‘rinbosari
Ondayeva Mavluda Shomurodovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarida mustaqil topshiriqlardan foydalanish ahamiyati, tarbiyaviy mazmuni, tayyorlash mexanizmi turli topshiriqlar asosida yoritilgan, kutiladigan natija va amalga oshirish jarayoni ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqil topshiriq, ijodiy topshiriq, mustaqil ishlash ko‘nikmasi, ijodiy qobiliyat, metod, ko‘rgazmalilik, boshlang‘ich sinf, innovatsion usul.

Ta‘lim jrayonida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bugungi kunning asosiy talablaridan biridir. Ayniqsa tamal toshini qo‘yadigan boshlang‘ich ta‘lim jarayonidan boshlab, ta‘limni izchil va tizimli tashkil qilish asosiy masala hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matematikani puxta o‘zlashtirish, yuqori sinf bo‘lganda o‘quvchilardagi aktivlik va qiziqishni saqlab qolishga xizmat qiladi. O‘rta ta‘limning boshlang‘ich sinflarida matematika darslarini o‘qitish jarayonida eng to‘g‘ri metod bu ko‘rgazmalilik va mustaqil amaliy ishlarni olib borishdir. Matematika haqida A. Reni shunday deydi: ”Matematikani o‘qitishdan asosiy maqsad- odamni ana shu go‘zallik bilan tanishtirish va uning yordamida matematikada juda ham zarur bo‘lgan intizomga va mantiqiy fikrlashga o‘rgatishdir. Bu juda ham muhim, chunki matematikada mantiqiy fikrlashga o‘rgangan odam uni hayotning xohlagan sohasida qo‘llay oladi”.¹ Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash qobiliyatini o‘stirish bevosita mustaqil topshiriqlarga bog‘liq. O‘quvchilarni mustaqil faoliyatga o‘rgatish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

1-topshiriq: “Shakl nomi va soni” o‘yini. *Rasmda qanday shakllar berilgan, ularning nomi, rangi, sonini ayting va yozing.*



Shakllar nomi	Shakllar soni

Bu topshiriqlarni nafaqat mavzularga moslab, balki, figuralar, ularning nomini, 10 gacha bo‘lgan sonlarni raqamlashni o‘rganish jarayonida ham foydalanish mumkin.


¹ Saitov.Y, Matematika va matematiklar haqida T: “O‘qituvchi”, 1992.35-b.

O‘yin orqali o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini va sezgirligini o‘stirish mumkin. Matematik innovatsion topshiriqlar o‘quvchida maqsadga intilish, tirishqoqlik, zukkolik, kabi xislatlarni tarbiyalaydi. A.N. Kolmogorov ta’biri bilan aytganda: “Matematikani bilmay turib na zamonaviy texnika asoslarini, na olimlar tabiiy va ijtimoiy hodisalarni qanday qilib o‘rganayotganlarini anglab bo‘lmaydi”.² Shu sababli matematika darslari muhim ekanligini o‘quvchilar ongiga singdirib, darsni innovatsion texnologiyalar asosida o‘tishga harakat qilish zarur.

2-topshiriq: “Yordam ber” o‘yini. To‘g‘ri javobni strelka orqali topib belgilang! Bu topshiriq orqali bolalarni qayta xotirlashga chorlash mumkin. O‘quvchilar nafaqat olgan bilimlarini xotirlab oladilar, balki mantiqiy va topqirlik qobiliyatlarini ham shakllantiradilar.

Misollar	Yashirin son
$5 + \dots = 6$	3
$\dots + 2 = 6$	1
$3 + \dots = 6$	1
$6 - \dots = 5$	4
$\dots - 2 = 4$	3
$6 - \dots = 3$	6
$6 - \dots = 2$	6
$\dots - 5 = 1$	4
$2 * 6$	=
$6 * 3$	<
$6 * 6$	>

3-topshiriq: “Tarkibni top o‘yini”. O‘quvchilar sonlar tarkibini topib, kerakli katakchaga yozadilar.




Bu o‘yinni guruh yoki individual bo‘lib ishlash mumkin. Tezkorlik muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarning farqlash, ajratish va xotirlash qobiliyatini o‘stiradi.


4-topshiriq: “Matematik gullar” metodi. Bu topshiriqni har bir o‘quvchiga alohida berilishi maqsadga muvofiq. Bu topshiriqqa mos ifodalarni tezlik bilan topib, jadvalda qayt etishlari zarur. Bu singari topshiriqni “O‘nlik” konsentri o‘rganishda

²Saitov.Y, Matematika va matematiklar haqida T: “O‘qituvchi”, 1992.32-b.

bir necha darslarida ham foydalanish mumkin. Bu singari topshiriqlar o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashi va ifoda tuza olish qobiliyatini shakllantiradi.




5-topshiriq: “Yashirin so‘zni top!” o‘yini. Tayanch so‘z atrofiga kerakli so‘zlar yig‘iladi. Bosh harf bilan yozilgan harflar esa yig‘ilib, so‘z hosil qilinadi.



Bu o‘yindan foydalanish nafaqat o‘quvchilar uchun qiziqarli, qolaversa, o‘quvchilarning mulohaza yuritishi uchun zamin hozirlaydi. O‘quvchilarning abstrakt tushunchalarini o‘stiradi.

6-topshiriq: “Ifoda tuz” o‘yin metodi. O‘quvchilar bu o‘yinda tarqatilgan topshiriqlar kitobchasida berilgan shakllarning ko‘rinishiga qarab ifoda tuzib, uni yechishlari kerak.



Bu topshiriq ham “O‘nlik” konsentri doirasida misol, masala yechish jarayonida juda foydali sanaladi.

7-topshiriq: “Uyga yetib ol” o‘yini. O‘quvchilarga format tarqatiladi. Unda misollar berilgan, lekin ifodalardagi qaysi bir son noma’lum bo‘lsa, shularni topib, o‘z o‘rniga yopishtirib qo‘yilsa, bo‘g‘irsoq uygacha yetib oladi. Bu misollarni bo‘g‘irsoqqa quyon, bo‘ri, ayiq va tulkivoy tayyorlab kelgan. Agar savollardan

qaysinidir topishda xatolikka yo‘l qo‘ysangiz, u uygacha yetib borolmaydi. Shuning uchun, bolajonlar, birgalikda faqat to‘g‘ri javoblarni topishga harakat qilamiz.

MISOLLARNING TO‘G‘RI JAVOBINI O‘Z O‘RNIGA QO‘YING!

___	+	8	=	10
10	-	___	=	1
___	+	1	=	10
___	-	8	=	2
9	-	___	=	6
___	-	8	=	1
8	-	___	=	1

MISOLLARNING TO‘G‘RI JAVOBINI O‘Z O‘RNIGA QO‘YING!

2	+	8	=	10
10	-	9	=	1
9	+	1	=	10
10	-	8	=	2
9	-	3	=	6
9	-	8	=	1
8	-	7	=	1

9 7 2 10 3 9 9

Bu o‘yin orqali o‘quvchilarni sezgirlik, topqirlik ruhida tarbiyalash mumkin.

8-topshiriq: “Do‘stini top” o‘yini. O‘quvchilar Mushukvoy tayyorlab kelgan topshiriqni guruh bilan hamkorlikda bajaradilar. Har ikkala qatordagi misollarni yechadilar. Qolaversa, o‘rin almashgan do‘stini topadilar.

2*5=

2*3=

5*2=

2*6=

4*3=

Bu o‘yinlar orqali o‘quvchilarni matematikaga bo‘lgan qiziqishi va ishtiyoqini o‘stirish mumkin. O‘quvchilar bu singari o‘yin topshiriqlarni sevib bajaradilar.

9-topshiriq: “Ranglar jilosi”. O‘quvchilar jadvaldagi kamayuvchi, ayriluvchi, ayirmani, qo‘shiluvchi, yig‘indini topishlari zarur. Javobga mos ranglar topilib, jadval ichi bo‘yaladi.


MATEMATIKADA RANGLAR JILOS

Kamayuvchi	8	10	
Ayriluvchi	7		2
Ayirma		4	3

Qo‘shiluvchi	8	6	
Qo‘shiluvchi	2		1
Yig‘indi		10	3

1 10 6 4 5 3

10-topshiriq: “Sonini top” o‘yini. O‘quvchilar bu o‘yin orqali har bir shakl sonini va umumiy shakllar sonini topishlari (“ikkinchi o‘nlik” mavzusida ham foydalanish mumkin.) va jadvalda qayd etishlari zarur.



O‘yin axborot texnologiyasidan foydalanib slaydda berilishi, yoki har bir o‘quvchi uchun alohida berilishi mumkin. Slayd - prezentatsiyaning alohida kadri bo‘lib, matnni, sarlavhalarini grafik va diagrammalarni o‘z ichiga oladi.³ Bu o‘yin orqali o‘quvchilar ham shakllar haqida chuqur tasavvurga ega bo‘ladilar ham “birinchi o‘nlik”, “ikkinchi o‘nlik” mavzularni mustahkamlash jarayonida samarali natijaga erishadilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matematika darsi jarayonida foydalaniladigan har qanday innovatsion mustaqil topshiriqlarning natijasi samarali va qiziqarli bo‘ladi. Topshiriqlarning xilma-xilligi va o‘quvchilar imkoniyatidan kelib chiqib tanlanishi, yuksak natijalarga erishish va o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini o‘stirish uchun poydevor vazifasini o‘taydi. Turli innovatsion texnologiyalardan foydalanish, Milliy dastur talablarini ta‘minlashda ham yaxshi samara berishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidova M. EDUCATE STUDENTS BY SOLVING TEXTUAL PROBLEMS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.
2. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter “Decimal” at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
3. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics// Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174
4. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. Improve Pupils' Knowledge and Personal Qualities Through Educational Tools in Elementary Mathematics Classes. Middle European Scientific Bulletin Volume 8, January 2021, 173
5. M.J. Saidova. [Directions and Content of Educational Information](#) European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)

³ Allaberganova M.R Informatika fanidan didaktik o‘quv- majmuasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish jihatlarini tadqiq etish. Mag.dis. –Toshkent, 2011. -33-34- bet.

6. Saidova Mohinur Jonpo‘latovna, Karimova Kamola Komilqizi. [The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School](#). European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)
7. M.J. Saidova. [The Use of Various Forms in Teaching Future Primary School Teachers Through Distance Learning](#). Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (EJHSS) Vol. 5 (2022): EJHSS. 103–107.
8. M.J. Saidova. Teaching future primary school teachers to pass mathematics lessons through innovative technologies. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). V-5. 254-261
9. SM Jonpolatovna [Teaching Integration Tasks Based on Information Technology in Primary School Mathematics](#). Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences 6, 21-26
10. SM Jonpo‘latovna, FM Amonjonovna [First Improving the quality of education through the use of individual assignments in classroom mathematics lessons](#). Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences 6, 13-20
11. MJ Saidova [Directions and Content of Educational Information](#). EUROPEAN JOURNAL OF ISSN 2660-9630 12 (12), 210-218
12. SM Jonpolatovna, US Gulomovna [Effectiveness of the Use of Information Technologies in Fulfilling Creative Tasks in Primary School Mathematics](#). European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) 11, 26-31